

**Iqtidorli o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash mexanizmi bo'yicha uslubiy  
tavsiyalar**

*Ismailova Gulsara Jalgasbayevna*

*I.Yusupov nomidagi ijod maktabi psixologi*

*Jolibekova Gúlbanu Aybekovna*

*I.Yusupov nomidagi ijod maktabining 10-b sinf óquvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtidorli o'quvchilar bilan qo'shimcha ishlash mexanizmi bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan bo'lib, unda qobilyatli bolalarni yuzaga chiqarish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** barkamol shaxs, ijodiy mashq, iqtidorli o'quvchilar, sinfdan tashqari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, vatanga muhabbat...

Ustozlar zimmasida kelajagi buyuk davlatning komil va har tomonlama barkamol, vatanparvar hamda mehnatsevar insonlarni tarbiyalash, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni to'g'ri yo'naltirishdek yuksak vazifa yotadi. Ular shogirdlariga ta'lim-tarbiya beradilar, lekin evaziga hech qanday mukofot talab qilmaydilar. Ular uchun eng oliv mukofot shogirdlar kamoli hamda yutug'idir. O'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish juda muhim. Bu vazifani amalga oshirishda innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish muhim o'rin tutadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish va komil inson qilib voyaga yetkazish dars va sinfdan tashqari ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshirishni talab etadi. Chunki, o'quvchilar vatanga sadoqatni, mehnatsevarlik va tejamkorlikni maktabdan o'rganadi. O'quvchilarning ongida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, tabiat bilan qanday munosabatda bo'lishni, hayotiy jarayonlarni ustozlardan oladi.

O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi,

qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim.

**"Ijodiy mashq" usuli.** Ushbu usul o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish, bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma'lum qiladi qolganini esa o'quvchilar topshiriqlarni yechish jrayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi o'zлari bilimlarni mustaqil egallashadi.

Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.


**Iqtidorli o'quvchilarni qobiliyatini yuzaga chiqarish va ular bilan ishslash mexanizmini tashkil etish uchun o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalarni beramiz:**

1. O'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash;
2. Sinfda ijobiy emostional (hissiy) muhit yaratish;
3. Darsga ishchanlik kayfiyatida kirishish;

4. Darsga mas'uliyat bilan kirishish;
5. O'quvchilar bilan hamkorlik qilish;
6. Zamonaviy usullar asosida dars o'tish;
7. O'yin texnologiyalaridan foydalanish;
8. Ijodkorlik ya'ni muntazam o'z ustida ishslash.

**Arra metodi**





**IJODIY FAOLIYAT**



Berilgan matnni o'qing.

1. Matnda qanday oilaviy an'analar, qadriyat va marosimlar mavjud?
2. Yana qanday oilaviy tadbirlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlarni bilasiz?
3. Oilaviy tadbirlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlar nima maqsadda o'tkaziladi?
4. Xalqimizga xos bo'lgan tadbirlar, marosimlar, an'analar va urf-odatlar haqida ma'lumot bering.

*Farhod ishga kirganiga ham bir oy bo'ldi. Birinchi maoshini olib kel-di-da, onasiga berdi. Onasi duo qilib: «Oilaning kattasi — buvangiz, u kishiga bering, bu oilamizga xos odat», — deb qo'shib qo'ydi. Shu kuni oila a'zolari kechki dasturxon atrofiga yig'ilganlarida Farhodning buvasi nabirasining birinchi halol ishlab topgan puli bilan tabriklab, duo qildi. Bu muhim yodea munosabati bilan Farhodning onasi dasturxon tuzatdi.*

Hamkorlik pedagogikasida o'quvchi bilan pedagogik munosabatni demokratiyalashtirish, shaxs munosabatining muhim omil bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini samarasini beradi. Har qanday harakat foaliyati haqida ta'lim berish ma'lum vaqtini talab qiladi. Ta'limning har bir bosqichi o'zining xususiy va ayrim yetakchi tushunchalari bilan ta'riflanadi. Faqat vazifalar ketma-ket bo'lsagina o'qituvchi ta'lim uslubiyatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, shu qatorda ta'lim prinsiplari, tayyorlov va yo'llanma beruvchi mashqlardanfoydalanishi, usullar va uslubiyatlarni maqsadga muvofiq qo'llay olishi mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonining tuzilishini o'zgarmas deb bo'lmaydi. Bu jarayon faqat bosqichlar elementlarining tipik aloqasi bo'lib ta'limning umumiyligini qonuniyatlarini ifodalaydi va aniq vazifalarga qarab o'zgarishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'limning barcha bosqichlarida o'qituvchi

## *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*

o'zlashtirilayotgan faoliyatni o'quvchilar bilan birga tahlil qilishi, baholashi va xatolarni o'z vaqtida tuzatib borishi lozim ekanligi xususidagi amaliy ishlardagi kamchiliklar, o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning jahon miqyosida munosib o'rin egallashi uchun ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy yo'nalishlarda g'oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashayotganimizni unutmagan holda iqtidorli o'quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish burchimizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. T.: O'qituvchi, 2004.119-125-bet.
2. Shayakubov Sh.K., Ayupov R.X. Interfaol ta'lim usullari. – T., 2010-yil
3. Internet saytlari: -Ziyo.Net, -kitob.uz